

TALABALIK DAVRIDA HAYOT YO'LINI TANLASHGA KASBIY IDENTIKLIKNI TA'SIRI

Nodira Oribjonova

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'lumki, hayot yo'li insonning o'ziga xos qiyofasi bo'lib, unda uning dunyoqarashi va hayotiy yo'nalishi, intilishlari va yutuqlari, hayotiy qiyinchiliklarga munosabati va ularni yengish yo'llari aks etadi. U organizmning barcha tizimlari qulay ishlaganda va faoliyat talablariga javob berganda, uning adekvat safarbarligini belgilaydi.

Talabalik yoshidagi shaxslarning o'z hayot yo'liga munosabati noaniqligi sababli uyg'un va deformasiyalangan tiplar ajratiladi. Dastlab, inson anglamagan hayot yo'li uning xulq-atvoriga va umuman hayotiga ta'sir ko'rsatadi. U dunyoni idrok etishni, ichki shartlangan xususiyatlarni, o'tmishni qabul qilishni, dunyoqarash va ustanovkalarni, bugunni tushunishni, kelajakka rejalar holatini belgilaydi. Shuning bilan birga sub'yektning ruhiy energiyasini uning hayotini turli davrlariga va yosh inqirozlarini hisobga olgan holda taqsimlanishini belgilaydi.

Insonning jadal kasbiy va shaxsiy shakllanishi davrida hayot yo'lini tahlil qilish juda dolzarbdir. Darhaqiqat o'quvchilar o'tmish tajribasi resurslaridan foydalanib, o'z kelajagini rejalashtirar ekanlar, hozirgi kunlarini imkon qadar samarali muvofiqlashtirishlari lozim. Tadqiqotchilar kasbiy hayot yo'li bilan tenglashtiradilar, chunki insonlar anglangan maqsadlar, ya'ni istalgan kelajak obrazlari bilan bog'liq xususiy harakatlar va ularning ketma-ketligini rejalashtirishda hamda amalga oshirish yo'llarini qisqartirishga harakat qiladilar.

Hayot yo'liga nisbatan bunday tezlashtirishni u maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi, chunki hayot yo'li - bu muhokama qilish va shoshilinch yashashning shartsiz kategoriyasi emas, balki yaxlit va o'ziga xos qadriyatdir. Shunday qilib, hayot yo'li kasbiy o'zini o'zi anglash bilan chambarchas bog'liq.

Hayot yo'li muammosi har doim mavjud bo'lgan, ammo ilmiy adabiyotlarda u ko'pincha insonning jamiyatga, mavjud qadriyatlarga (ijtimoiy istiqbollari) moslashuvi, kasbiy yoki shaxsiy o'zini o'zi belgilash doirasida ko'rib chiqilgan. Ye.I.Golovaxa tomonidan berilgan hayotiy istiqbol tushunchasi insonning kelajakdagi hayot yo'lining eng umumlashtirilgan tavsifini ifodalaydi. Hayotiy istiqbolni u "inson o'zining ijtimoiy qadriyati va hayotining individual mazmunini bog'laydigan dasturlashtirilgan va kutilayotgan voqealarning murakkab va ziddiyatli o'zaro bog'liqligidagi kelajakning yaxlit manzarasi" deb tushunadi [4]. Kasbiy identiklik muammosiga tez-tez murojaat qilishga kelsak, u shaxsning doimiy rivojlanish va takomillashishga qodir bo'lgan

mutaxassis sifatida shakllanishida yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligini aytish mumkin.

Talabalik yoshi, deb ko'rsatadi T.A.Firsova, insonning o'z identifikatsiyasiga, o'z "Men" obraziga erishishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, shaxsning asosiy sifat va xususiyatlarining shakllanishi yakunlanadi. Talabaning kasbiy o'zini o'zi anglashining asosiy tarkibiy qismlariga "Men – konsepsiya" va "Men – obraz" kiradi [7].

Ma'lumki, talabaning "Men-obraz"i uch bosqichdan iborat:

- "Men-ideal", u o'zi haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi;
- "Men – me'yoriy" qo'yilgan talablarga muvofiqlik haqidagi tasavvur;
- "Men-real" - mavjud qobiliyatlar, xususiyatlar va sifatlar haqidagi tasavvur.

Talabaning "Men-obrazi" asosida "Men-konsepsiya" shakllanadi. U o'zi va o'z imkoniyatlari haqidagi tasavvurlar tizimi bo'lib, uning yordamida atrofdagi insonlar bilan o'zaro munosabatlar va o'zining kasbiy kelajagi va rivojlanish istiqbollari strategiyasini qurish sodir bo'ladi.

So'ngra kasbning ijobiy qiyofasini shakllantirish zarurati tug'iladi. U qo'yiladigan talablar, shart-sharoitlar va istiqbollar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, kasbiy faoliyatda taqlid qilish uchun zarur bo'lgan namunalar mavjud bo'lib, ular harakat qilish kerak bo'lgan ma'lum bir mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Yu.V. Krasnikova insonning jadal kasbiy va shaxsiy shakllanishi davrida hayot yo'lini tahlil qilish va aniqlashning dolzarbligiga e'tibor qaratadi [3]. Uning fikricha, o'quvchilar o'tmish tajribasi resurslaridan foydalanib, o'z kelajagini rejalashtirar ekan, hozirgi kunini iloji boricha samarali muvofiqlashtirishi lozim.

N.A.Loginova o'quvchi-yoshlarning kasbiy identikligining psixologik-pedagogik shaxsga yo'naltirilgan modeli doirasida maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikda o'quvchilarning hayot yo'liga ta'sir ko'rsatuvchi qobiliyatlarini tashxislashning innovasion pedagogik texnologiyalarini tavsiflaydi [5]. Ye.A. Klimov hayot yo'li dilemmasini kasbiy hayot yo'li bilan tenglashtiradi, chunki insonlar anglangan maqsadlar, ya'ni istalgan kelajak obrazlari bilan bog'liq xususiy harakatlar va ularning ketma-ketligini rejalashtirishda ularni amalga oshirish yo'llarini qisqartirishga harakat qiladilar.

Hayot yo'liga nisbatan bunday tezlashtirishni u maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi, chunki hayot yo'li - bu muhokama qilish va shoshilinch yashashning shartsiz kategoriyasi emas, balki yaxlit va o'ziga xos qadriyati hisoblanadi [1]. Ye.Yu.Korjova shaxsning hayot yo'li va hayotiy istiqbollari, ularning aniq anglanishi, uzoqqa cho'zilishi, ishonchliligi va boshqalar hayotdagi kasbiy, oilaviy va yoshga bog'liq o'zini o'zi aniqlash bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Bu esa shaxsga, uning ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy yetukligi va faolligiga bog'liq. Hayotiy istiqbol qaror topadigan hayot yo'li shaxsning kasbiy shakllanishi muvaffaqiyatini belgilovchi integrativ tushunchadir [2]. Dolzarb va istiqboldagi o'zgarishlarga taalluqli rejalar

qandaydir manzarani shakllantiradi. Bu esa umuman shaxs yutuqlarini tavsiflovchi natija sifatida namoyon bo'ladi. V.V.Panteleyevaning talqiniga ko'ra, kasbiy identiklik, begonalashuv kabi, shaxsning o'zini o'zi aniqlashning murakkabligini, shuningdek, professional rolini o'z zimmasiga olishni aks ettiruvchi ikki qutbli tushunchalardan biri sanaladi [6].

Keltirilgan nazariy yondashuvlarga asoslanib, kasbiy shakllanish jarayonlari, xususan, identiklik yoki begonalashuv kontekstida ko'rib chiqiladigan hayot yo'li ancha ziddiyatli, chunki u ikki tomonlama namoyon bo'ladi. Birinchidan, hayot yo'li tashqi maqsad, faoliyat uchun turtki vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, hayot yo'lining asosiy asosi dasturlashtirilgan maqsadning ichki, shaxsiy mazmunli obrazi bo'lib, u faoliyatning yoki kasbiy shakllanishning haqiqiy sababini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, hayot yo'li talabalarning kasbiy identiklik va kasbiy begonalashuvini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Климов Е. А. Психология профессионала [Текст]/ Е. А. Климов. - Москва: Изд - во Интапракт, 2006. - 400 с.
2. Коржова Е.Ю. Психология жизненного пути: проблемы и перспективы [Текст] / Е.Ю.Коржова // Интегративный подход к психологии человека и социальному взаимодействию людей: векторы развития современной психологической науки. - 2017. - № 3. -С. 164 - 169.
3. Красникова Ю. В. Профессиональная идентичность как основной элемент профессионального воспитания [Текст] / Ю.В. Красникова // Актуальные вопросы современной педагогики. - 2013. - №5. - С. 167 - 169.
4. Кроник А.А. Психологический возраст личности [Текст] / А.А. Кроник, Е.И. Головаха // Психология личности в трудах отечественных психологов. - 2000. - № 2. - С. 16 - 31.
5. Логинова Н.А. Жизненный путь человека как проблема психологии [Текст] / Н.А. Логинова // Вопросы психологии. - 1985. - № 1. - С. 103 - 110.
6. Петрова Ю.И. Понятие профессионального выбора в современных психологических исследованиях [Текст] / Ю.И. Петрова // Молодой ученый. - 2016. - № 22. - С. 224-227.
7. Халимова Ш.Ш. Теоретический обзор проблемы жизненной перспективы у студенческой молодежи [Текст] / Ш.Ш. Халимова // Сборник материалов международных научно-практических конференций. - 2018. - № 2.-С. 95 - 101